



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI "4K" TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI VA METODIK SHART-SHAROITLARI

Nazirjon Azimjanov

Turan International University

PhD dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22012640>

Annotatsiya: ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash texnologiyalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, mas'uliyat, metodika, ta'lim, tarbiya, kasbiy kompetensiya, zamonaviy ta'lim, kasbiy faoliyat, ijodiy faoliyat.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqishda amaliyotda qo'llanib kelinayotgan ta'lim va tarbiya texnologiyalarining nazariy hamda metodik asoslariga tayanildi. Pedagogik texnologiyalar mazmuni va qo'llanish doirasiga ko'ra uch darajada tasniflanadi: 1) umumpedagogik daraja - yaxlit ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishga xizmat qiluvchi o'qitish texnologiyalarini ifodalaydi; 2) xususiy-metodik daraja - muayyan o'quv fanini o'qitish mazmuni, metodikasi va didaktik vositalari bilan bog'liq texnologiyalarni qamrab oladi; 3) lokal-modulli daraja - shaxsda aniq sifatlar, xususiyatlar hamda xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar majmuasini anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan talabalarda refleksiv qobiliyatni shakllantirish texnologiyasi lokal-modulli darajadagi texnologiya hisoblanadi.

Pedagogik muammolarni hal etishda refleksiv texnologiyalardan foydalanish holati so'ngi o'n yilliklarda ko'proq ko'zga tashlanmoqda. Aslida, pedagogik faoliyat mohiyatan refleksiv xarakter kasb etadi. Zero, refleksiya pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasida ijobiy ma'nodagi subyektiv munosabatlar uchun sharoit yaratadi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonida bir qator muhim funksiyalarni bajaradi:

- *loyihalash funksiyasi* - pedagogik faoliyat maqsadlarini aniqlash, ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini modellashtirish hamda pedagogik jarayonni oldindan rejalashtirishni nazarda tutadi;

- *tashkiliy funksiya* - pedagogik faoliyatni maqsadga muvofiq, izchil va samarali tashkil etish imkonini beradi;



- *kommunikativ funksiya* - ta'lim jarayoni subyektlari o'rtasida samarali muloqot, hamkorlik va o'zaro tushunishni ta'minlovchi muhim shart sifatida namoyon bo'ladi;

- *ijodiy fikrlashni rivojlantirish funksiyasi* - pedagogik jarayon ishtirokchilarida pozitiv tafakkur, ijodkorlik, tashabbuskorlik hamda muammoli vaziyatlarga kreativ yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi;

- *motivatsion funksiya* - faoliyatning yo'nalishi, mazmuni va xarakterini belgilash, shuningdek, subyektning ehtiyojlari, qiziqishlari hamda kasbiy faolligini rag'batlantirish bilan tavsiflanadi.

- *korreksiya qilish* – pedagogik jarayon subyektlarining o'z faoliyatidagi kamchiliklarni hamda boshqalar bilan o'zaro munosabatlarini tuzatish vazifasini bajaradi. Talabalarda refleksiv qobiliyatni shakllantirishning lokal-modulli texnologiyasini ishlab chiqishda texnologik yondashuvning mazkur parametrlari inobatga olindi.

Lokal-modulli texnologiyaning faoliyat maqsadi quyidagicha aniqlashtirildi: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida "4K" ta'lim mazmuni, uning psixologik-pedagogik asoslari haqidagi nazariy bilimlarni shakllantirish, o'qitish texnologiyalari hamda monokonstruktiv va sotsiokonstruktiv xarakterdagi diagnostik vositalar majmuasidan foydalanish asosida o'quvchilar bilan samarali ishlashga doir zarur amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, pedagogik vaziyatni to'g'ri baholash, faoliyatni loyihalash va o'z-o'zini tahlil qilish malakalarini tarkib toptirish.

Xususiyy-metodik texnologiya ishlab chiqish jarayoni quyidagi asosiy uslubiy talablarga muvofiq tashkil etiladi: konseptuallik, tizimlilik, funksionallik, boshqariluvchanlik, samaradorlik hamda takror ishlab chiqish imkoniyati.

Konseptuallik bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlashga qaratilgan umumpedagogik texnologiyalarning nazariy prinsiplariga tayanish orqali ta'minlanadi. Bunda ong va faoliyat birligi, bilish va tafakkur nazariyasi, tizimli-faoliyat yondashuvi, refleksiyani shaxsning o'zini rivojlantirish va o'zini namoyon etish mexanizmi sifatida talqin qilish, shuningdek, refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish tamoyillari metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Tizimlilik shaxs shakllanishi va rivojlanishining murakkabligi, ko'p bosqichlilik, mazkur jarayonga ta'sir etuvchi subyektiv va obyektiv omillarning o'zaro bog'liqligi hamda amaliy faoliyat tizimining umumiy tuzilmasida refleksiyaning funksional tuzilishi bilan ta'minlanadi.



Motivatsion tarkibiy qism, bunda obyektiv yondashuv asosida shaxsiy ehtiyoj hamda ijtimoiy talablar identifikatsiyalanadi. Bu esa shaxsda refleksiv ko'nikmalarni o'zlashtirishga nisbatan motivning paydo bo'lishiga olib keladi.

Maqsadli tarkibiy qism shaxs ehtiyojlariga mos keladigan maqsadni belgilash funksiyasini bajaradi.

Qaror qabul qilish komponentida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash maqsadiga muvofiq xatti-harakatlar dasturini tanlash vazifasini bajaradi.

Takrorlanuvchanlik texnologik jarayonning muhim mezonini bo'lib, bunda muayyan pedagogik faoliyatning boshqa subyektlari tomonidan turli vaziyatlarda qayta qo'llanilishi va kutilgan natijaga erishishi, faoliyat tuzilishining shaffofligi ta'minlanadi.

Intensiv kurs doirasidagi mashg'ulotlarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash quyidagi metodik tamoyillar asosida amalga oshirilishi belgilandi: loyihalash, variativlik, "student-centered education", individual imkoniyatlarni rivojlantirish, imitatsion modellashtirish, o'z-o'zini anglash, ilmiylik, subyektivlik.

Bo'lajak bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash bosqichlari mazmuni:

1-faza: tayyorlov bosqichida faoliyat maqsadi, vazifalari va bosqichlarini belgilash; hamkorlikda faoliyatni tashkil etish uchun qulay muhitni yaratish; refleksiv qobiliyat mazmuniga oid o'quv materiallarini tayyorlash amalga oshiriladi. Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida "4K" ta'lim mazmunini o'zlashtirishga nisbatan shaxsiy ehtiyoj (qiziqish, xohish-istak)ni qaror toptirish, mazkur xususiyatga ijobiy emotsional munosabatni shakllantirish asosiy vazifa etib belgilanadi.

2-faza: bilish bosqichida o'qitish metodlari va o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish shakllarini oqilona tanlash, o'qitishning interfaol metod va usullarini ajratib olish; refleksiv faoliyat mazmuniga doir ma'lumotlarning o'zlashtirilishi; o'quv faoliyati birliklarining qaror topishiga e'tibor qaratiladi.

3-faza: amaliy bosqichda talabalarni amaliy faoliyat jarayoniga jalb etish; o'quv topshiriqlari va monokonstruktiv hamda sotsiokonstruktiv tavsifga ega refleksiv texnika mashqlarini bajarish orqali refleksiv faoliyat ko'nikmalarini qaror toptirish jarayoni amalga oshiriladi. Amaliy bosqich "4K" ta'limga nisbatan ijobiy motivatsiyani shakllantirish hamda turli vaziyatlarda aks ettirish jarayonini faollashtirishga qaratilgan bo'lib, refleksiv faoliyat motivlarini yaratish uchun zarurdir. Ushbu bosqichda talabalar asosiy tushunchalar, jarayonlar, harakatlar



bilan tanishishadi hamda refleksiv qobiliyatning tabiati, tuzilishi, strategiyasi va taktikasini o'zlashtirishadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash bo'yicha trening mashqlari o'tkaziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаева Б.С. Фанлараро алоқадорликнинг методологик-дидактик асослари (ижтимоий-гуманитар йўналишидаги академик-лицейларда математика ўқитиш мисолид) Пед.фан.док. дис...автореф. Т.: - 2006. – 49 б.
2. Арипджанова А.Р. Развития креативного потенциала педагогов высших образовательных учреждений в условиях информатизации образования. Пед. фан. док. (PhD) дис... – Тошкент: 2017. – 179 б.
3. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Т.: Молия, 2003. – 192 б.
4. Абдукаримов Х. «Профессиональное воспитание личности учителя в процесса непрерывного педагогического образования» Автореф.дисс. ... докт. пед. наук. –Т.: 1997. – 46 с.

